- eksport kontraktlarini davlat bojxona xizmati organlarida hisobga qo'yish talabi bekor qilindi [6];
- mahalliy eksport qiluvchi korxonalarga 53 turdagi mahsulotni eksport qilishda avtomobil, temir yo'l va havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizigacha bo'lgan miqdorini kompensatsiya qilish uchun subsidiyalar taqdim etish mexanizmi joriy qilindi (hozirda bekor qilingan) [7];
- eksportdan valyuta tushumining kechiktirilishiga yo'l qo'ygan xo'jalik subyektlari uchun qonunchilikda belgilangan jarima miqdorlari 2 baravarga kamaytirildi [8];
- oxirgi o'n ikki oy davomida 1 million AQSH dollaridan ortiq tayyor to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan korxonalarga asosiy va yordamchi ishlab chiqarish uchun butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarni olib kirishda bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha foiz hisoblanmagan hamda ularning to'lanishini ta'minlash talab etilmagan holda 120 kunga to'lovni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berildi [9];
- xavf darajasi past bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyalarini inson omilisiz avtomatik ravishda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish boshlandi [10];
- bir eksport shartnomasi doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot qiymatining 5 foizidan oshmagan taqdirda, u muddati o'tgan debitor qarzdorlik hisoblanmaydi va tadbirkorlik subyektiga nisbatan jarima qo'llanilmaydi [11];
- mahsulotlar eksporti bo'yicha 9 ta bosqichdan iborat bojxona rasmiylashtiruvi 3 baravarga qisqartirildi va "Eksport uch qadamda" axborot tizimi ishga tushirildi [12];
- eksport yo'nalishida 9 turdagi shartnomalar 1 turga birlashtirildi (eksport, birja-eksport, markazlashgan-eksport, konsignatsiya-eksport, qayta ishlash, lizing-eksport, olib chiqish, dasturiy ta'minot eksporti, savdo maydonchalari orqali eksport shartnomalari umumiy "eksport" shartnomasiga birlashtirildi) [13];



- “E-kontrakt” tashqi savdo axborot tizimi contract.customs.uz saytiga joylashtirilib, ishga tushirildi [14];
- qora metallar va qora metallar prokati mahsulotlarini oldindan haqini to‘lamasdan eksportga chiqarishga ruxsat berildi [15];
- “BB” va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga eksport operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik mavjud bo‘lsa ham, tovarlarni oldindan haqini to‘lamasdan eksportga chiqarishga ruxsat berildi [16].

Mazkur islohotlar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati jadal sur‘atlarda o‘sib borayotganligini yaqqol ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 2015–2025-yillardagi eksport hajmi dinamikasi²

Xususan, 2015–2025-yillar davomida mamlakat eksport hajmi 12,5 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollariga yetib, 21,3 mlrd AQSH dollariga yoki 170,3 foizga oshgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aynan 2017-yil mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirishdagi dastlabki bosqich sifatida muhim o‘rin tutadi.

Jumladan, 2018–2019-yillarda eksport hajmi mos ravishda 11,4 foiz va 24,8 foizga o‘ydi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta‘sirida eksport hajmi 13,5 foizga qisqargan bo‘lsa-da, 2021-yildan boshlab tiklanish jarayoni kuzatilib, 2023-yilda 26 foiz, 2025-yilda esa 24 foizlik o‘sish qayd etildi.

Mazkur tendensiya O‘zbekistonda tashqi savdoni liberallashtirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash hamda valyuta siyosatini erkinlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natija berayotganligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mamlakat eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida valyuta nazoratining eksport faoliyatiga oid ayrim talablarini maqbullashtirish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

(i) Tovarlarni eksport shartnomasini tuzmasdan invoys asosida eksport qilish masalasi

O‘zbekistonda tovarlar eksporti asosan eksport shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, tovarlar eksportini shartnoma tuzmasdan, invoys asosida ham amalga oshirishga ruxsat berilgan.

Biroq, invoys asosida eksport qilishda xorijiy xaridor tomonidan eksport qiymatining kamida 50 foizi oldindan to‘langan bo‘lishi talab etiladi.

Ayni vaqtda eksport shartnomasi asosida amalga oshiriladigan eksport operatsiyalarida bunday talab mavjud emas va eksportyor tovarni “no факты (qarzgа sotish)” sharti asosida eksport qilishi mumkin.

Natijada iqtisodiy mazmuni bir xil bo‘lgan eksport operatsiyalariga nisbatan turli huquqiy talablar qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan, invoys asosida eksport mexanizmini amaliyotda yanada kengroq qo‘llash uchun mavjud talablarni maqbullashtirish imkoniyatlari mavjud.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2017–2025-yillar davomida invoys asosida rasmiylashtirilgan eksport operatsiyalarining umumiy qiymati 11,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, jami eksport hajmining o‘rtacha


2 Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi




0,01 foizidan ham oshmagan. Xususan, 2017-yilda invoys asosidagi eksport hajmi 2,24 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 177 ming AQSH dollarini tashkil etgan. Mazkur holat invoys asosidagi eksport mexanizmidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi (2-rasm).

Shu bilan birga, operatsiyalar soni bo'yicha o'tkazilgan tahlillar invoys asosidagi eksport soni yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2017-yilda invoys asosida 53 ta eksport operatsiyasi amalga oshirilgan bo'lsa, 2025-yilda ularning soni 10 mingdan oshgan. Shu davrda eksport shartnomalari soni 19 359 tadan 51 642 tagacha oshgan bo'lib, invoys asosidagi eksport operatsiyalarini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi (2,3-rasm).

2-rasm. 2017–2025-yillarda invoys asosidagi eksport dinamikasi (ming AQSH dollari)



3-rasm. 2017–2025-yillarda eksport kontraktlari va invoys asosidagi eksport soni dinamikasi (dona)



2–3-rasmlar. 2017–2025-yillarda invoys asosidagi eksport hajmi hamda eksport kontraktlari va invoys asosidagi eksport operatsiyalari soni dinamikasi³

Shuningdek, eksport tushumining o'z vaqtida qaytishini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlar amaldagi qonunchilikda boshqa huquqiy mexanizmlar orqali ham tartibga solingan [18]. Jumladan:

- soliq organlari tomonidan muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun moliyaviy jarimalar qo'llaniladi;
- bojxona organlari eksportyorning keyingi eksport operatsiyalarini oldindan to'lov yoki kafolatli to'lov shakllari asosida amalga oshirishini talab qiladi;
- tijorat banklari tranzaksiyalarni kafolatli shakllar asosida amalga oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Shartnoma va invoys asosidagi eksport operatsiyalarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Eksport shartnomasi asosida	Invoys asosida
Eksport qilish mumkinligi	Ha	Ha
Qarzga sotish	Ha	Yo'q
50 foiz oldindan to'lov	Talab qilinmaydi	Majburiy
Debitor qarzdorlik yuzaga kelishi	Mumkin	Mumkin
Soliq nazorati	Mavjud	Mavjud
Bojxona nazorati	Mavjud	Mavjud
Bank nazorati	Mavjud	Mavjud

3 Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Jahon amaliyotida eksport operatsiyalarida to'lov shaklini tanlashda eksportyor va importyor o'rtasidagi o'zaro kelishuv muhim o'rin tutadi. Masalan, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Singapurda eksport operatsiyalarida oldindan to'lov, ochiq hisob (*Open Account*), hujjatli inkasso (*Documentary Collection*) yoki akkreditiv (*Letter of Credit*) kabi hisob-kitob shakllari eksportyor va importyorning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi.

Jahon savdo tashkilotining Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimida (*Trade Facilitation Agreement*) eksport-import jarayonlaridagi ma'muriy talablarni maqbullashtirish savdo xarajatlarini kamaytirish va tashqi savdoni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan [19].


Shu sababli, eksport tushumini ta'minlash bo'yicha bir vaqtning o'zida uchta nazorat mexanizmi amal qilayotgan sharoitda invoices asosida eksport qilish uchun qo'shimcha ravishda 50 foizlik oldindan to'lov talabini belgilashni yanada maqbullashtirish eksport operatsiyalarini soddalashtirish va eksportyorlar uchun qulay shart-sharoitlarni kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

(ii) Tovarlarini milliy valyutada eksport qilishda to'lov shartlarini liberallashtirish masalasi

Mamlakatimizda eksport operatsiyalari xorijiy valyutada ham, milliy valyutada ham amalga oshirilishi mumkin. Qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida milliy valyutada eksport hajmi ham bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Eksport tovarlarining asosiy ulushini kalava ip, to'qimachilik mahsulotlari, meva-sabzavot, metall va metall buyumlar tashkil etgan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy valyutada eksport amaliyoti mavjud bo'lib, uning hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sib bormoqda. Xususan, 2020-yilda milliy valyutada amalga oshirilgan eksport hajmi 73,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 611,2 mlrd so'mga yetgan. Ya'ni, qisqa davr ichida milliy valyutadagi eksport hajmi qariyb 8,3 baravarga oshgan (4-rasm).

4-rasm. 2020–2025-yillarda milliy valyutada eksport hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



4-rasm. 2020–2025-yillarda milliy valyutada amalga oshirilgan eksport hajmi dinamikasi (mlrd so'm)⁴

Mazkur ko'rsatkichlar milliy valyutada eksport operatsiyalariga amaliy ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, amaldagi valyuta nazorati talablari xorijiy valyutada va milliy valyutada amalga oshiriladigan eksport operatsiyalariga nisbatan turlicha yondashuvni nazarda tutadi. Shu bois, milliy valyutadagi eksportning jami eksportdagi ulushi 2025-yilda 0,3 foizni tashkil etgan.

Xususan, xorijiy valyutada eksport qilinayotgan tovarlarni muddatli to'lov (qarzga sotish) sharti asosida realizatsiya qilishga ruxsat berilgan bo'lsa, milliy valyutada eksport qilinayotgan tovarlar uchun oldindan to'lov yoki akkreditiv, bank kafolati yoxud sug'urta polisi kabi kafolatli to'lov shakllaridan foydalanish majburiy hisoblanadi.

Natijada tovarlarni xorijiy va milliy valyutada eksport qilish talablari o'rtasida muayyan tafovut yuzaga keladi (2-jadval).

4 Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-jadval
Xorijiy va milliy valyutada eksport operatsiyalarining qiyosiy tahlili⁵

Ko'rsatkich	Xorijiy valyutada	Milliy valyutada
Qarzga sotish	Ruxsat etiladi	Ruxsat etilmaydi
Oldindan to'lov	Talab qilinmaydi	Majburiy
Akkreditiv	Ixtiyoriy	Talab etiladi
Bank kafolati	Ixtiyoriy	Talab etiladi
Sug'urta polisi	Ixtiyoriy	Talab etiladi

Xalqaro amaliyotda eksport operatsiyalarida muddatli to'lov (*Open Account*) yoki boshqa hisob-kitob shakllaridan foydalanish hisob-kitob valyutasiga bog'liq ravishda cheklanmaydi, balki eksportyor va importyorning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi (ICC, 2007; ICC, 2023) [20]. Mazkur yondashuv hisob-kitob valyutasidan qat'i nazar, eksport operatsiyalari uchun teng huquqiy sharoit yaratish xalqaro savdo amaliyotining muhim tamoyillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.


Milliy valyutada eksport operatsiyalarini amalga oshirish uchun yaratiladigan qulay sharoitlar nafaqat eksportni rag'batlantiradi, balki O'zbekiston so'mining mintaqaviy savdo hisob-kitoblaridagi rolini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Bu esa milliy valyutani bosqichma-bosqich xalqaro hisob-kitob vositasi sifatida kengroq qo'llashga zamin yaratadi.

(iii) Savdo uylari orqali amalga oshiriladigan konsignatsiya eksportini rag'batlantirish maqsadida valyuta tushumini ta'minlash muddatini uzaytirish

Jahon amaliyotida savdo uylari milliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarda targ'ib qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, marketing faoliyatini yo'lga qo'yish hamda eksport hajmini oshirishning muhim institutsional vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda savdo uylari orqali eksportni rivojlantirish maqsadida konsignatsiya asosida eksport qilish mexanizmi joriy etilgan. Qo'shimcha ravishda, 2017-yilda eksportni liberallashtirish doirasida savdo uylaridan tashqari eksport qiluvchi korxonalarga ham "eksport fakti" (qarzga sotish) sharti asosida mahsulot eksport qilish huquqi berildi. Dastlab bunday eksport operatsiyalarida valyuta tushumini ta'minlash muddati 120 kun etib belgilangan bo'lsa, 2020-yildan ushbu muddat 180 kungacha uzaytirildi.

Natijada bugungi kunda savdo uylari orqali konsignatsiya asosida eksport qilishda ham, oddiy eksport bo'yicha "eksport fakti"da ham valyuta tushumini ta'minlash muddati bir xil — 180 kunni tashkil etmoqda. Mazkur holat savdo uylari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini yanada to'liq hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi (5-rasm).



5-rasm. 2017–2025-yillarda savdo uylari orqali amalga oshirilgan eksport hajmi dinamikasi (mln AQSH dollari)⁶

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi



Buning natijasida savdo uylari orqali eksport hajmida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, 2017-yilda 182,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2025-yilda 4,8 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Turkiyada savdo uylari eksportni rivojlantirishning asosiy institutsional vositalaridan biri hisoblanadi.

Xususan, OECD tadqiqotlarida eksportni institutsional qo'llab-quvvatlash, ayniqsa savdo uylari va eksportni rag'batlantirish agentliklari faoliyati tashqi bozorlarga chiqishni kengaytiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan (OECD, 2021) [21]. Mazkur tajribalar konsignatsiya asosida eksport qilinadigan mahsulotlar uchun nisbatan uzoqroq realizatsiya muddatini belgilash eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Konsignatsiya va eksport fakti asosidagi eksport operatsiyalarining taqqoslanishi⁷

Ko'rsatkich	Konsignatsiya	Eksport fakti
Xaridor eksport vaqtida mavjud	Yo'q	Ha
Mahsulot omborga yuboriladi	Ha	Yo'q
Marketing talab etiladi	Ha	Yo'q
Xaridor keyinchalik topiladi	Ha	Yo'q
Valyuta tushumi muddati	180 kun	180 kun

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, konsignatsiya asosidagi eksport operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati oddiy eksport shartnomalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli valyuta tushumini ta'minlash muddatini har ikki eksport turiga nisbatan bir xil belgilash o'rniga, ularning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Savdo uylari orqali eksport qilinadigan ayrim mahsulotlar, xususan, to'qimachilik, elektrotexnika, qurilish materiallari, kimyo sanoati va boshqa uzoq muddatli marketing hamda distribyutorlik tarmog'ini talab qiladigan mahsulotlar uchun valyuta tushumini ta'minlash muddatini 365 kun etib belgilash va tovar xususiyatidan kelib chiqib valyuta nazoratini differensial qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natijada savdo uylari orqali eksport hajmi ortishi, yangi xorijiy bozorlarni egallash imkoniyatlari kengayishi, eksport geografiyasi diversifikatsiya qilinishi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti ko'payishi, mahsulotlarni xorijiy bozorlarda marketing qilish imkoniyatlari yaxshilanishi, eksportyorlarning logistika va savdo xarajatlari kamayishi hamda mamlakat eksport salohiyati oshishi mumkin.

(iv) Eksportyorlarga nisbatan muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun moliyaviy javobgarlikni qo'llashda differensial yondashuvni joriy etish

Amaldagi tartibotlarga ko'ra, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ygan eksportyorlarga nisbatan moliyaviy jarima belgilangan. Qolaversa, ushbu eksportyorning keyingi eksport operatsiyalari oldindan to'lov yoki kafolatli shakllar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, eksportni rag'batlantirish maqsadida PF-250-son Farmon bilan barqarorlik reytingida "BB" va undan yuqori toifaga ega eksportyorlarga muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda ham keyingi eksport operatsiyalarini oldindan to'lovsiz yoki kafolatli shakllarsiz amalga oshirish huquqi berildi. Buning natijasida 2026-yilning dastlabki olti oyida tashqi savdo shartnomalari ijrosida muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud 243 ta korxona tomonidan 140 mln AQSH dollari qiymatidagi tovarlar eksport qilindi. Mazkur o'zgartirish eksportyorlarning tashqi savdo faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirdi hamda ishonchli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikka ko'ra, muddati o'tgan debitor qarzdorlik yuzaga kelganda soliq organlari tomonidan moliyaviy jarima qo'llaniladi va bunda eksportyorning moliyaviy barqarorligi, soliq intizomi, eksport hajmi hamda barqarorlik reytingi inobatga olinmaydi.

Natijada, bir tomondan, davlat ishonchli eksportyorning keyingi eksport operatsiyalarini erkin amalga oshirishiga imkoniyat yaratsa, ikkinchi tomondan, aynan shu eksportyorga moliyaviy sanksiyalar umumiy tartibda qo'llaniladi.



Mazkur holat davlat siyosatida qo'llanilayotgan rag'batlantirish mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi (4-jadval).

4-jadval
Muddati o'tgan debitor qarzdorlik bo'yicha amaldagi yondashuv⁸

Davlat organi	Amaldagi tartib
Bojxona qo'mitasi	"BB" va undan yuqori reytingga ega eksportyorlarga yengillik mavjud
Soliq qo'mitasi	Reytingdan qat'i nazar, moliyaviy jarima qo'llaniladi

Xalqaro tajribada Jahon bojxona tashkilotining (WCO) SAFE Framework of Standards hujjatida ham ishonchli iqtisodiy operatorlarga (Authorized Economic Operator – AEO) soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari va qo'shimcha yengilliklar berish tavsiya etilgan (WCO, 2021, Pillar II; WCO, 2022, Chapter 3) [22]. Mazkur yondashuv davlat nazoratini xavfga asoslangan mexanizmlar asosida tashkil etish hamda halol tadbirkorlarni rag'batlantirish xalqaro amaliyotning muhim tamoyillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksportyorlarning barqarorlik reytingini bojxona nazorati bilan bir qatorda soliq ma'murchiligida ham inobatga olish davlat nazoratining izchilligi va xavfga asoslangan boshqaruv tamoyillariga mos keladi. Shu sababli "BB" va undan yuqori reytingga ega eksportyorlarni muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun moliyaviy javobgarlikdan ozod etish eksportni rag'batlantirish va halol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi bo'lishi mumkin.

Buning natijasida bojxona va soliq organlari faoliyatida yagona huquqiy yondashuv ta'minlanadi, halol eksportyorlar rag'batlantiriladi, eksport faoliyatidagi moliyaviy yuk kamayadi, davlat nazoratining xavfga asoslangan modeli rivojlantiriladi, eksportyorlarning moliyaviy xarajatlari kamayadi, eksport faoliyatining uzluksizligi ta'minlanadi, tadbirkorlarning davlat organlariga bo'lgan ishonchi oshadi, barqarorlik reytingi institutining amaliy ahamiyati kuchayadi hamda eksport hajmi va valyuta tushumlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

(v) Eksport shartnomalari bo'yicha umidsiz debitor qarzdorliklarni hisobdan chiqarish jarayonlarini "E-kontrakt" axborot tizimi orqali raqamlashtirish

Eksport shartnomalari ijrosida ayrim hollarda xorijiy kontragentlarning bankrotligi, tugatilishi, jismoniy shaxsning vafot etishi, sud qarorlari yoki boshqa obyektiv sabablarga ko'ra eksport tushumlarini undirish imkoni bo'lmaydi. Natijada eksport shartnomalari bo'yicha umidsiz debitor qarzdorlik yuzaga keladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 216-son qaroriga muvofiq, bunday qarzdorliklarni hisobdan chiqarish hududiy komissiyalar, Soliq qo'mitasi hamda Hukumat komissiyasi ishtirokida amalga oshiriladi.

Mazkur tartib eksportyorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, amaliyotda ushbu jarayonlarni yanada soddalashtirish va tezkorlashtirish imkoniyatlari mavjud.

O'rganishlar natijasida umidsiz debitor qarzdorliklarni hisobdan chiqarish mexanizmini takomillashtirish mumkin bo'lgan quyidagi yo'nalishlar aniqlandi.

Birinchidan, murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonlari asosan qog'oz shaklida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, hududiy komissiya xulosalarini tayyorlashda 10 dan ortiq davlat organlari ishtirok etadi.

Uchinchidan, individual tartibda hal qilinishi mumkin bo'lgan murojaatlar ham umumiy komissiya tartibida ko'rib chiqiladi.

To'rtinchidan, tadbirkor murojaatining qaysi bosqichda ekanligini elektron tarzda kuzatish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurati mavjud.

Natijada mazkur jarayonlarni raqamlashtirish tadbirkorlarning vaqt va ma'muriy xarajatlarini yanada maqbullashtirish imkonini beradi.

Amaliy tajriba doirasida "JTA Milk" MChJ eksport shartnomasi misolida umidsiz debitor qarzdorlikni hisobdan chiqarish jarayoni xronometraj usulida kuzatilganda, uning umumiy davomiyligi 11 oyni tashkil etgan. Mazkur holat amaldagi mexanizmni eksport faoliyati talablariga yanada moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi (5-jadval).



5-jadval
Amaldagi mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari⁹

Holat	Amaliy natija
Jarayon qog'oz shaklida	Jarayonni elektronlashtirish orqali muddatlarni qisqartirish imkoniyati mavjud
10 dan ortiq idora ishtiroki	Idoralararo hamkorlikni avtomatlashtirish imkoniyati mavjud
Individual ishlar ham komissiyada ko'riladi	Individual va komissiyaviy tartibni differensial qo'llash mumkin
Onlayn monitoring imkoniyati cheklangan	Elektron kuzatuv tizimini joriy etish mumkin
Inson omili yuqori	Avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirish mumkin
Takroriy hujjatlar mavjud	Elektron ma'lumot almashinuvi orqali hujjatlar sonini maqbullashtirish mumkin

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Jahon bankining Doing Business 2020 hisobotida ham tashqi savdo hujjatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirish eksport-import operatsiyalariga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirishi qayd etilgan (World Bank, 2020, "Trading Across Borders") [23].

Mazkur xalqaro tajriba umidsiz debitor qarzdorliklarni "E-kontrakt" tizimi orqali elektron hisobdan chiqarish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Shu sababli "Umidsiz qarzdorliklarni elektron hisobdan chiqarish" modulini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur modul elektron murojaat yuborish, avtomatik hujjat almashinuvi, individual va komissiyaviy tartibni avtomatik ajratish, elektron kelishuv, QR-kodli xulosalar, tadbirkor uchun onlayn monitoring va avtomatik hisobot funksiyalarini o'z ichiga olishi lozim.

Natijada qarzdorlikni hisobdan chiqarish muddati 3–12 oydan 15 kungacha qisqarishi, qog'oz hujjatlar aylanishi kamayishi, inson omili qisqarishi, eksportyorlarning ma'muriy xarajatlari maqbullashishi hamda asossiz moliyaviy jarimalarning oldini olish imkoniyati kengayishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish va tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar mamlakat eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilganligini ko'rsatdi. Xususan, 2015–2025-yillarda eksport hajmining 12,5 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollarigacha oshgani amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy samarasini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tahlillar eksport faoliyatida valyuta nazoratining ayrim talablarini yanada takomillashtirish eksportchilar uchun ma'muriy jarayonlarni maqbullashtirish imkonini berishini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan masalalarni takomillashtirish hamda eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, invoices asosida eksport qilishda xorijiy xaridor tomonidan tovar qiymatining kamida 50 foizini oldindan to'lash talabini bekor qilish va invoices asosidagi eksport operatsiyalarini eksport shartnomalari bilan teng huquqiy sharoitlarda amalga oshirishga ruxsat berish.

Ikkinchidan, milliy valyutada amalga oshiriladigan eksport operatsiyalarida ham xorijiy valyutadagi eksport kabi tovarlarni muddatli to'lov (qarzga sotish) sharti asosida eksport qilish imkoniyatini joriy etish hamda hisob-kitob valyutasiga qarab qo'llanilayotgan talablarni o'zaro uyg'unlashtirish.

Uchinchidan, savdo uylari orqali konsignatsiya eksportining iqtisodiy xususiyatidan kelib chiqib, ayrim turdagi mahsulotlar uchun valyuta tushumini ta'minlash muddatini 180 kundan 365 kungacha uzaytirish hamda valyuta nazoratini tovar xususiyatiga asoslangan differensial yondashuv asosida tashkil etish.

To'rtinchidan, barqarorlik reytingida "BB" va undan yuqori toifaga ega eksportyorlarni muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun moliyaviy javobgarlikdan ozod etish orqali bojxona va soliq organlari faoliyatida yagona xavfga asoslangan nazorat tamoyillarini joriy etish.

Beshinchidan, "E-kontrakt" tashqi savdo axborot tizimida umidsiz debitor qarzdorliklarni elektron hisobdan chiqarish modulini ishlab chiqish, davlat organlari o'rtasida elektron axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda mazkur jarayonlarni to'liq raqamlashtirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi eksport operatsiyalarini soddalashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni maqbullashtirish, davlat nazoratini xavfga asoslangan tamoyillar asosida tashkil etish, eksportyorlarning vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirish hamda mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.



Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy valyuta nazorati tizimi eksportni qo'llab-quvvatlovchi, halol eksportyorlar uchun qulay sharoit yaratuvchi, raqamlashtirilgan va xavfga asoslangan boshqaruv mexanizmi sifatida rivojlantirilishi lozim. Aynan shunday yondashuv O'zbekistonning "double landlocked" davlat sifatidagi geografik xususiyatlarini savdoni yengillashtirish orqali samarali boshqarish, eksport geografiyasini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-3326421>
2. United Nations. Vienna Programme of Action for Landlocked Developing Countries for the Decade 2014–2024. — New York: United Nations, 2014; World Bank. Trade Facilitation Support Program (TFSP). — Washington, DC: World Bank.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351-son qarori.: <https://www.lex.uz/uz/docs/-3470718>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-3845273>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4337-son qarori.: <https://www.lex.uz/uz/docs/-4351732>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-son qarori.: <https://lex.uz/uz/docs/-5382179>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi "Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6306-son Farmoni.: <https://lex.uz/ru/docs/-5617897>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-122-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-5998615>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-228-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-6217257>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.: <https://lex.uz/docs/-6396146>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi "Bojxona ma'muriyatchiligi tartib-taomillarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 77-son qarori.: <https://lex.uz/docs/-7387486>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni.: <https://lex.uz/uz/docs/-7451997>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-dekabrdagi "Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-365-son qarori.: <https://lex.uz/uz/docs/-7873803>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi "Bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-250-son Farmoni.: <https://www.lex.uz/ru/docs/-7934915>
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar [Elektron resurs]. — URL: https://stat.uz/img/makrokorsatkichlar-uz_ru_en.pdf.
17. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son Qonuni.: <https://lex.uz/ru/docs/-4562834>
18. World Trade Organization. Trade Facilitation Agreement. — Geneva: World Trade Organization, 2017.



19. International Chamber of Commerce. Uniform Customs and Practice for Documentary Credits (UCP 600). ICC Publication No. 600. — Paris: ICC Publishing, 2007; International Chamber of Commerce. Guidance Papers on UCP 600. — Paris: ICC.
20. Organisation for Economic Co-operation and Development. Trade Facilitation Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2021.
21. World Customs Organization. SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade. — Brussels: WCO, 2021; World Customs Organization. Authorized Economic Operator (AEO) Compendium. — Brussels: WCO, 2022.
22. World Bank. Doing Business 2020. — Washington, DC: World Bank, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>